



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

XIV ASRDAGI GEOSIYOSIY VAZIYAT VA KUHLAR MUVOZANATI SHAROITIDA AMIR TEMURNING TASHQI SIYOSAT DOKTRINASI

Ulug‘bek Artikbayevich Abdullayev

Mustaqil tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: abdullaevulugbek@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIV asrda yuz bergan geosiyosiy o‘zgarishlar hamda ularning Movarounnahr va kengroq Yevroosiyo makonidagi siyosiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilingan. Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi, Abbosiy xalifaligining tugashi va Buyuk Ipak yo‘lining tanazzuli oqibatida mintaqada siyosiy beqarorlik kuchaygani ko‘rsatib o‘tiladi. Shu tarixiy sharoit Amir Temurning siyosiy sahnaga chiqishiga va uning tashqi siyosat doktrinasi shakllanishiga zamin yaratgan. Maqolada A.Temurning tashqi siyosati harbiy yurishlarga emas, balki diplomatiya, savdo va sivilizatsion aloqalarni tiklashga qaratilgani yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi ehtimoliy ittifoq g‘oyalari, xususan Usmoniylar davlatining kengayishiga qarshi diplomatik aloqalar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Amir Temur o‘z davrining global geosiyosiy muammolariga javob bera olgan strategik siyosatchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, XIV asr, geosiyosiy vaziyat, tashqi siyosat, Yevropa, Usmoniylar, diplomatiya, ittifoq.

THE FOREIGN POLICY DOCTRINE OF AMIR TIMUR IN THE GEOPOLITICAL CONTEXT AND BALANCE OF POWER OF THE 14TH CENTURY

Ulug‘bek Artikbaevich Abdullaev

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: abdullaevulugbek@gmail.com

Annotation. This article examines the geopolitical transformations of the 14th century and their impact on the political landscape of Transoxiana and the wider Eurasian region. It highlights how the fragmentation of the Mongol Empire, the fall of the Abbasid Caliphate, and the decline of the Silk Road trade routes led to instability and the need for strong centralized power. Against this backdrop, Amir Timur emerged as a decisive statesman whose foreign policy doctrine combined Chinggisid traditions with Islamic political-legal principles. The study emphasizes

that Timur’s external policy extended beyond military conquests, encompassing diplomacy, trade revival, and civilizational exchange. Particular attention is given to the idea of a potential alliance between Amir Timur and European powers against the expanding Ottoman Empire. The findings suggest that Timur strategically engaged in diplomacy to balance regional forces and respond to the global geopolitical challenges of his era.

Keywords: Amir Timur, 14th century, geopolitical balance, foreign policy, Europe, Ottomans, diplomacy, alliance.

ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ И БАЛАНС СИЛ В XIV ВЕКЕ: ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКАЯ ДОКТРИНА АМИРА ТИМУРА

Улугбек Артикбаевич Абдуллаев

Независимый исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Электронная почта: abdullaevulugbek@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируются геополитические изменения XIV века и их влияние на политические процессы в Мавераннахре и более широком евразийском пространстве. Отмечается, что распад Монгольской империи, падение Аббасидского халифата и упадок Великого шёлкового пути привели к усилению политической нестабильности в регионе. Эти исторические условия создали предпосылки для появления Амира Тимура на политической арене и формирования его внешнеполитической доктрины. В статье показано, что внешняя политика Тимура включала не только военные походы, но и активное развитие дипломатии, торговли и цивилизационных связей. Особое внимание уделено идеям возможного союза между Амиром Тимуром и европейскими государствами, в частности дипломатическим контактам, направленным против экспансии Османской империи. Результаты исследования свидетельствуют о том, что Амир Тимур выступает как стратегический политический деятель, сумевший ответить на глобальные геополитические вызовы своего времени.

Ключевые слова: Амир Тимур, XIV век, геополитическая ситуация, внешняя политика, Европа, Османская империя, дипломатия, союз.

KIRISH

XIV asr dunyo tarixida keskin geosiyosiy o‘zgarishlar davri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda Yevroosiyo makonida siyosiy markazlar kuchlar muvozanatiga yangi tarzda ta’sir ko‘rsata boshladi. XIII asr oxiriga kelib, bir vaqtlar ulkan

hududlarni bir davlat qo‘li ostida birlashtirgan Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi, uning voris davlatlari o‘rtasida raqobat va ziddiyatlarni kuchaytirib yubordi. Shuningdek, Islom olamida Abbosiylarning 1258-yilda ag‘darilishi natijasida siyosiy-mafkuraviy markazning yo‘qolishi Sharq mamlakatlarida hokimiyat vaqfining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bu vaziyatda Movarounnahr, Eron, Kavkaz va Osiyoning keng mintaqalarida turli siyosiy kuchlar o‘rtasida ustuvorlik uchun kurash kuchaydi. Xususan, Chig‘atoy ulusi hududida ichki tartibsizliklar, mahalliy amirlar va tuman hukmdorlarining mustaqillikka intilishi siyosiy parokandalikni keltirib chiqardi. Bunday sharoitda kuchli markazlashgan davlatning vujudga kelishi zaruratga aylandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot XIV asrdagi geosiyosiy vaziyat, Movarounnahr mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va Amir Temurning tashqi siyosat doktrinasini ilmiy asosda tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi.

1. Tarixiy-mukammal tahlil metodi

Tadqiqot davomida XIV asrning Yevroosiyo mintaqasidagi siyosiy o‘zgarishlari ketma-ketlikda o‘rganildi. Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi, Abbosiylar xalifaligining tugashi, Chig‘atoy ulusi hududidagi siyosiy beqarorlik kabi tarixiy jarayonlar izchil tarixiy kontekstda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv Temuriylar davlatining shakllanishi uchun qanday geosiyosiy zamin mavjud bo‘lganini aniqlashga yordam berdi.

2. Komparativ (qiyosiy) tahlil metodi

A.Temurning tashqi siyosati o‘sha davrdagi boshqa siyosiy markazlar – Usmoniylar davlati, Mamluklar, Oltin O‘rda, Eron hududidagi mahalliy sulolalar hamda Yevropa qirolliklarining siyosiy strategiyalari bilan qiyosiy o‘rganildi. Bu yondashuv Temur diplomatiyasining o‘ziga xosligi va mintaqaviy-geosiyosiy kuchlar muvozanatiga ta’sirini ko‘rsatishda muhim o‘rin tutdi.

3. Siyosiy-geosiyosiy tahlil metodi

Tadqiqotda “kuchlar muvozanati”, “geosiyosiy markaz”, “strategik hududlar”, “qudrat konsentratsiyasi” kabi tushunchalar orqali Amir Temurning tashqi siyosat konsepsiyasi tahlil qilindi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab savdo xavfsizligini tiklash, mintaqaviy integratsiya va davlatlararo ittifoqlar masalalari geosiyosiy nuqtayi nazardan o‘rganildi.

4. Manbashunoslik yondashuvi

Tadqiqotda quyidagi turdagi manbalar kompleks o‘rganildi:

- sharqiy tarixiy manbalar: “Zafarnoma”lar, Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomi, Sharafuddin Yazdiy asarlari;
- Yevropa diplomatik xatlari va elchilar yozuvlari (Fransua Sandron hisoboti, Kastiliya elchixonasi qaydlari);
- zamonaviy tarixchilarning monografiyalari va maqolalari.

Turli manbalar bir-biri bilan solishtirilib, ularning ishonchlilik darajasi ekspert tahlili asosida baholandi.

5. Diplomatiya tarixi metodi

A.Temur va Yevropa shahar-davlatlari o‘rtasidagi aloqa, ittifoq g‘oyalari, elchilik missiyalari va ularning siyosiy maqsadlari diplomatiya tarixi nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Xususan, Boyazid I ning ekspansiyasi, Vizantiya imperiyasining yordam izlash siyosati va Yevropaning sharqiy ittifoqchiga bo‘lgan ehtiyoji alohida tahlil qilindi.

6. Struktura-funksional yondashuv

Amir Temur davlat tizimining tashqi siyosatdagi o‘rni, harbiy yurishlar, iqtisodiy aloqalar va diplomatik missiyalarning umumiy davlat strategiyasidagi funksional ahamiyati aniqlab berildi. Bu metod Temur davlatining tashqi siyosiy tuzilmasini yaxlit tizim sifatida ko‘rishga yordam berdi.

7. Analitik-sintetik yondashuv

Turli tarixiy faktlar, geosiyosiy omillar va diplomatik jarayonlar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi. Bu yondashuv Amir Temurning tashqi siyosiy doktrinasining konseptual mazmunini aniqlash imkonini berdi.

MUHOKAMA

XIV asrdagi ushbu geosiyosiy muammolar faqat tashqi quvvatlar emas, balki Yevroosiyo savdo yo‘llari – xususan, “Buyuk Ipak yo‘li”ning bo‘linishi orqali iqtisodiy oqimlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Savdo aloqalarining zaiflashishi mintaqada siyosiy-iqtisodiy tanazzulni chuqurlashtirdi. Natijada, jamiyatning turli qatlamlarida barqarorlik va xavfsizlikka ehtiyoj yanada ortib bordi.

Aynan shu tarixiy sharoit Amir Temurning siyosiy sahnaga chiqishiga va uning tashqi siyosat doktrinasini shakllanishiga asosiy zamin bo‘ldi. Temur siyosiy merosi – Chingiziy tuzuglar va islomiy siyosiy-huquqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirgan holda, mintaqada yangicha geosiyosiy tartib o‘rnatishni maqsad qilib oldi. Uning tashqi siyosati nafaqat harbiy harakatlarga, balki keng qamrovli savdo, diplomatiya va sivilizatsion aloqalarni tiklashga yo‘naltirildi.

Yevropa shaharlari va A.Temur ittifoqi g‘oyasi milodiy XIII asrning qirquinchi yillarining boshlarida, mo‘g‘ul qo‘shinlari Sharqiy Yevropani zabt eta boshlagan

paytda paydo bo‘ldi. 1244-yilda ular Vengriya qirolligigacha yetib bordilar. Mazkur ittifoqning umumiy nishoni islomiy kuchlar bo‘lib, dastlab, Misr va Shom bu ittifoqning asosiy maqsadi bo‘lgan¹. XIV asr oxiri va XV asr boshlariga kelib, ittifoq g‘oyasi Yevropadagi Usmoniylar davlatining kengayishiga qarshi qaratildi. Bu safar yangilik shundaki, jarayon bir paytning o‘zida ikki yo‘nalishda – siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlarda olib borildi. Chunki ittifoqdagi har bir tomon o‘z manfaatlariga ega bo‘lib, ushbu manfaatlarni sulton Boyazid I ning kengayishlari, Konstantinopolga bosim o‘tkazishi va qamali yaqqol namoyon qildi. Shu bilan birga, o‘sha paytdagi mo‘g‘ul xonining A.Temur bilan dushmanlik kayfiyati kuchaydi va uning shonshuhrati hamda kengayishlari haqidagi xabarlar qo‘shni mamlakatlar orqali Yevropaga yetib bordi.

Ushbu uchburchakning bir tomoni Vizantiya imperiyasi esa mazkur qamal azobini boshdan kechirayotgan edi. Bu holat yevropalik kuchlarni sulton Boyazidga dushmanlik ruhida ularga sherik bo‘ladigan qudratli ittifoqchi izlashga undadi va ular bunday sherikni Amir Temurda topdilar. “Yevropa ittifoqi” deganda Vizantiya imperiyasi, Italiyaning savdo shahar-davlatlari, shuningdek Fransiya, Angliya va Kastiliya qirolliklari nazarda tutiladi². 1404-yil esa Kastiliya qiroli Genrix III ning elchixonasi 1404-yil 21-noyabr kuni mo‘g‘ul xoni poytaxt Samarqanddan chiqib ketgan yilidir.

Yevropa shaharlari va A.Temur ittifoqi g‘oyasi bir qator sabablar tufayli paydo bo‘lib, ulardan eng muhimi 1394-yildan Konstantinopolga Boyazid I tomonidan kuchli qamal o‘rnatilishi³ va buning oqibatida shahar hamda aholining aziyat chekkanidir⁴. Vizantiya imperatori Manuyel II Yevropa G‘arbidan yordam so‘radi⁵. G‘arbning javobi salmoqli bo‘lib, uning ramzi Vengriya qiroli Sigizmund nominal qo‘mondonlik qilgan ulkan qo‘shin edi. Biroq bu qo‘shin Nikopol jangida Usmoniy sultonidan mag‘lubiyatga uchradi⁶. Bu g‘alaba g‘arbda Usmoniylarning

¹ عادل هلال، العلاقات بين المغول وأوروبا وأثرها على العالم الإسلامي، دار عين للدراسات الإنسانية والاجتماعية، القاهرة، 1997م؛ علي أحمد السيد، " فكرة التحالف مع أوروبا عند أرغون خان مغول فارس (1284-1293م)"، بحث منشور في مجلة الإنسانيات بكلية الآداب بدمنهور، جامعة الإسكندرية، 2008م؛

Sinor D. The Mongols and Western Europe // A History of the Crusades, Vol. 3: The Fourteenth and Fifteenth Centuries (Madison 1975). - P. 513–544;

Senor, D., "The Mongols in the West", JAH, Vol.33, No.1, 1999, pp.1-44; Jackson, P., The Mongols and the West 1221-1410 (London and New York 2014).

² Sinor D. The Mongols and Western Europe // A History of the Crusades, Vol. 3: The Fourteenth and Fifteenth Centuries (Madison 1975). - P. 513–544

³ Aşık Paşaoğlu, Aşık paşa Tarihi, Hazirlayan, Nihal Atsız, Ankara, 1989, pp.68-70.

⁴ Gregory, E.T., *A History of Byzantium*, Blackwell, 2005, p. 321.

⁵ Andriopoulou Stavroula. Diplomatic communication between Byzantium and the West under the late Palaiologi (1354-1453), PhD. Degree in the University of Birmingham, 2010, pp. 259-280.

⁶ Froissart, Chronicle of Froissart, trans. J. Bouchier, Lord Berners, ed. by. G.C. Macaulay, London, 1930, pp. 435-448; Doukas, Decline, pp. 83-85; Chalcocondylas, L., Historiarum Demonstrations, ed. B.G. Niebuhrii, CSHB, Bonn, 1841, pp. 75-77; Thuro'czy, J., Chronicle of the Hungarians, trans. F. Mantello, Indiana, 1991, pp.52-58; Schiltberger,

Sharqiy Yevropani, keyin esa tabiiy ravishda G‘arbiy Yevropani ham yutib yuborish maqsadlari qanchalik xavfli ekanini anglashga olib keldi hamda Sharqdan – mo‘g‘ullar timsolida – yordam ehtimolini kuchaytirdi. Bundan tashqari, mazkur g‘alaba Usmoniylarning xristianlik va xristianlarga nisbatan xavfi A.Temur boshchiligidagi mo‘g‘ullarnikidan ham kattaroq ekanini ko‘rsatdi⁷. Shu bois, sulton kuchidan ehtiyot bo‘lish va uning kelajakdagi kengayishlarini jilovlash zarurati tug‘ildi.

Mazkur g‘alabadan so‘ng sulton Vizantiya imperatoridan Konstantinopol kalitlarini topshirishni talab qildi, biroq imperator rad etdi. Shunda Boyazid shaharga qamal qo‘ydi. Manuyel II esa, xususan Fransiyadan yordam so‘rab, G‘arbga yuzlandi. Fransiya qiroli Karl VI javob qaytarib, boshida dominikan rohibi Fransua Sandron⁸ turgan elchilikni yubordi⁹.

Vizantiya imperatori buning bilan cheklanmay, sharqda Usmoniy sultoniga qarshi chiqqan yangi kuch – A.Temur bilan ittifoq tuzishga intildi, ayniqsa A.Temurning qo‘shni islomiy davlatlar hisobidan kengayishi boshlanganidan so‘ng¹⁰. U Karl VI elchisi Fransua Sandronidan foydalanib, uni Samarqandga bosh elchi sifatida yubordi¹¹.

TAHLIL VA NATIJALAR

A.Temurga yo‘llangan fransuz–vizantiya elchisining muvaffaqiyatlari borasida boshqa dalillar ham bor. Fransuz tarixchisi J. Delavil Rulning qayd etishicha, fransuz qiroli dominikan Fransua Sandronni Amir A.Temurni o‘z loyihalari bilan tanishtirish va u bilan ittifoq tuzish masalasini ko‘tarish uchun maxsus topshiriq bilan yuborgan. Ankara jangidan keyingi turli yozishmalar ham savdo va siyosiy shartnomalar bo‘yicha muzokaralar boshlashga oid tavsiyalarni o‘z ichiga olgan ittifoq loyihasini ko‘rsatadi¹². Maktublardagi ohang ham fransuz qirolining sharq siyosatini qo‘llab-quvvatlash borasida mo‘g‘ul xonining roziligini ifodalagan. Shuningdek, elchilik Konstantinopoldan A.Temurdan yordam so‘rashni

J., The Bondage and Travel of Johan Schiltberger, A Native of Bavaria, in Europe, Asia, Africa, 1396-1427, trans. B. Telfer, with notes by P. Brunn, New York, 1878, pp.1-10; Atiya, A.S., The Crusade of Nicopolis, London, 1934.

⁷ Knobler, The Rise of Tīmūr, p. 343.

⁸ هايدف، تاريخ التجارة في الشرق الأدنى في العصور الوسطى، 4 أجزاء، ترجمة أحمد محمد رضا، مراجعة عز الدين فودة، القاهرة، 1990م، ج3، ص122.

⁹ Necipoğlu Nevra. Byzantium between the Ottomans and the Latins, Politics and Society in the late Empire, Cambridge University Press, 2009, pp.151-152.

¹⁰ Livre des Fais du bon Messire Jehan le Maingre, dit Bouciquaut, Mareshal de France et gouverneur de Jennes, ed. D. Lalande, Geneva, 1985, I, pp. 152-153; Gautier, P. (ed.), "un récit inédit sur le siège de Constantinople par les Turcs (1394-1402)", REB, Vol. XXII, 1965, - P. 106.

¹¹ Knobler, The Rise of Tīmūr, p.342. and note (10)

– ya’ni shahar butunlay o‘zini unga topshirishi¹³ va sulton Boyazidga to‘lanadigan xirojni unga to‘lashni – iltimos qilgan¹⁴.

Ko‘rinadiki, Fransua elchiligidagi muvaffaqiyat fransuz qiroli tomonidan – Vizantiya imperatori orqali – yana bir elchilik yuborishga turtki berdi: unda Fransuaga Karl VI dan Genuya ustidan oliy hakim sifatida xatlar berildi¹⁵. U Pera mustamlakasi taqdiriga, bilvosita esa Konstantinopolning holatiga juda qattiq qiziqish bildirgan. Boshqa fikrga ko‘ra, fransuz qirolining mo‘g‘ul xoni bilan aloqalari Vizantiya imperatori yozishmalaridan avval boshlangan bo‘lib, bu ishda ham Fransua elchi vazifasini bajargan. Qanday bo‘lmasin, Vizantiya imperatori Usmoniylar sultoni va mo‘g‘ul xoni o‘rtasidagi o‘zaro adovatdan foydalangan holda A.Temurdan yordam olish urinishida muvaffaqiyatli bo‘ldi. Bundan tashqari, A.Temurning kengayish siyosati, Osiyodan tashqariga ham cho‘zilgan saltanat orzulari uni har qanday ittifoq loyihasini qabul qilishga moyil qildi – bu taklifda u o‘z istagini ro‘yobga chiqarish imkonini ko‘rdi.

Vizantiya imperatorining intilishlari, ehtimol, fransuz qiroli Karl VI ning A.Temur bilan aloqalaridan xabardor bo‘lgach kuchaydi: u Parijga elchilik yuborib, yordam so‘radi va fransuz qiroli bilan Vizantiya–mo‘g‘ul ittifoqi imkoniyatlarini muhokama etdi. Fransuz qiroli rozi bo‘ldi; bundan tashqari, u o‘z elchisini A.Temurga avvalroq yuborgan edi – u Vizantiya imperatori bilan mo‘g‘ul xoni o‘rtasida vositachi bo‘lishi, shuningdek fransuz qiroli nomidan siyosiy va iqtisodiy mazmundagi xatlar yetkazishi kerak edi. A.Temur fransuz qirolining maqsadlari va harbiy qudrati bilan tanishgach, ittifoqning harbiy va iqtisodiy yo‘nalishlarini ma’qul topdi. Agar Usmoniy hujumi yuz bersa, Genuya ustidan hokim bo‘lgan fransuz qiroli va Vizantiya imperatori o‘z flotlari bilan ko‘mak berishi mumkin edi. Shuning uchun, A.Temur elchilarni huzurida ushlab turdi – bu orqali u vaziyatdan kelib chiqib ulardan foydalanish, Boyazid bilan voqealar qanday kechishini kuzatish imkoniga ega edi. U Vizantiya imperatori va fransuz qirolining ittifoq haqidagi takliflariga qat’iy javob bermadi. Bu esa A.Temurga o‘zini butun dunyo hukmdori bo‘lish yo‘lida ekanini his qildirardi¹⁶ – bu g‘oya mo‘g‘ullar o‘rtasida XIII asrning boshlaridan shakllangan va o‘sha asrda ittifoqlarni amalga oshirishga to‘siq bo‘lgan, biroq Ayn Jalutdan keyin biroz susaygan edi.

Biroq ayrimlar A.Temurning bu va’dalarga to‘liq tayanmaganini ta’kidlaydi. U xristian lageri avvalo o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qilishini, ularni faqat

¹³ Spandounes, Th., On the Origin of the Ottoman Emperors, trans. ?? Nicol, Cambridge, 1997, p. 23;

¹⁴ صبرى سليم، تيمورلنك فى ميزان التاريخ، بحث منشور بمجلة كلية دارالعلوم جامعة الفيوم، العدد الرابع عشر، 2015م، ص131-132.

¹⁵ Moranville H. Memoire sur Tamerlan et sa Cour par un Dominicain, en 1403, In Bibliothèque de l’école des Chartes, Tome 55, Paris, 1894, p. 434.

¹⁶ Spandounes, Th., On the Origin of the Ottoman Emperors, trans. ?? Nicol, Cambridge, 1997, p. 23

A.Temur bilan Boyazidning o‘zaro yo‘q bo‘lishi qiziqtirishini anglagan edi¹⁷. Ammo bu qarash A.Temurning Shomdagi Mamluklar sultonligiga nisbatan dushmanona siyosatga o‘tgani, shu tariqa ikki dushman – mamluklar va usmoniyalar – o‘rtasida qolganini e’tibordan chetda qoldiradi. Shu sabab, u katolik va pravoslav Yevropaning yordamidan Usmoniy sultoni bilan to‘qnashuvda bosim vositasi sifatida foydalanishni, shuningdek mamluklar bilan usmoniyalar kelishib qolish ehtimoliga qarshi kafolat yaratishni istadi – aks holda u Usmoniyalar bolg‘asi bilan Mamluklar sandani orasida qolib ketishi mumkin edi.

Qayd etilishicha, A.Temur Boyazid I kabi dushmanga qarshi urush boshlashga tayyorlanar ekan, avvalo xristian dunyosi bilan ittifoq tuzishga kirishgan. Ayniqsa, u Shomga yetib borib, 1401-yilda Damashqni egalladi. Ushbu shaharda ko‘plab yevropalik savdo shaharlari konsullari bor edi¹⁸. Damashq talon-taroj qilingani haqidagi xabarlar Sharqdagi lotin davlatlari konsulliklari yoki mintaqadagi lotin savdogarlari orqali G‘arbga yetib bordi¹⁹. Shunday qilib, A.Temur bilan Yevropa kuchlari o‘rtasida qo‘shma harakatlar uchun yo‘l ochilayotgani sezilardi. Qamal ostidagi Konstantinopol va Peradagi genuyaliklarning savdosi zararlangani bois, Pera podestasi bilan Vizantiya regenti Ioann VII A.Temurning avvalgi takliflarini qabul qilganlarini unga Trabzon imperatori orqali yetkazdilar, o‘zlarining og‘ir ahvollarini tushuntirdilar va sultonga qarshi urush boshlashga da‘vat etdilar. Agar A.Temur Boyazidga urush ochishga qaror qilsa, ular kishilar va kemalar bilan yordam berishga tayyor ekanliklarini bildirdilar hamda ilgari Usmoniy sultonga to‘lab kelgan xirojni undan ayamaydilar²⁰. Shu bilan birga, A.Temur va fransuz qiroli ittifoqni yakunlashga undovchi omillar ko‘payib borardi.

Vaziyat A.Temurni sulton Boyazid I bilan to‘qnashishga tobora yaqinlashtirardi. U ham o‘z navbatida imkon boricha ko‘proq tayanchlarni izlar, G‘arb kuchlari bilan do‘stona aloqalar o‘rnatardi. Sharqiy xristian kuchlari esa odatda mo‘g‘ullar bilan hamkorlik qilib, musulmonlarga qarshi birlashishga odatlangan edi; bu ittifoqni qayta tiklash g‘oyasi siyosiy jihatdan muhim bo‘lib, ayniqsa dominikan missionerlari orasida katta qo‘llab-quvvatlov topdi. Shu bois, Vizantiya regenti Ioann VII va Pera podestasi A.Temur bilan muloqotni davom ettirib, uni Boyazid I ga urush e‘lon qilishga undashdi²¹.

Bu paytda Karl VI ning A.Temurga xatlari to‘xtamadi, dominikan missionerlari qirolning ishonchli vakillari A.Temurning qudratini maqtab,

¹⁷ جوزيف داهموس، سبع معارك فاصلة في العصور الوسطى، ترجمة/ محمد قحى الشاعر، ط 2 الهيئة المصرية العامة للكتاب، القاهرة، دت، ص 188.

¹⁸ Fishel, W.J., "A new Latin Source on Tamerlane's Conquest of Damascus (1400/1401)", *Oriens*, IX, 1956, p. 205,

¹⁹ Ashtor, E., *Levant Trade in the Middle Ages*, Princeton, 1983, p. 113.

²⁰ Ashtor, E., *Levant Trade in the Middle Ages*, Princeton, 1983, p. 113.

²¹ Delavill le Roulx, *Le France*, Tome I, pp. 389-390; Luttrell, A., "Timur's Dominican Envoy", In C. Heywood and C. Imber (eds.), *Studies in Ottoman History in Honor of Professor V.L. Menage*, Istanbul, 1994, p. 209.

Konstantinopolga ko‘rsatgan yordamlarini e’tirof etishda davom etdilar. Fransuz qiroli Vizantiya imperatorini saroyida nihoyatda ehtirom bilan qabul qildi; bundan tashqari, Genuya 1396-yilda unga ixtiyoriy ravishda bo‘ysungan edi. Bu ikkala holat ham Sharqda sodir bo‘layotgan voqealarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi²². Tarixchi Hayd fransuz qirolining maktublarini faqat dominikan elchilarini A.Temurning homiylikiga tavsiya qiluvchi oddiy xatlar deb bilgan Silvestr de Sasi fikrini rad etadi, “Tavsiyalar foydali bo‘lishi mumkin, biroq bu yerda Boyazid I ga qarshi urush olib borish masalasi turgani tan olinishi kerak”. Har ikki tomon ham o‘z siyosiy va iqtisodiy maqsadlariga erishish uchun bu ittifoqqa muhtoj edi.

XIV asr dunyo tarixida chuqur geosiyosiy o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu jarayonlar Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda siyosiy kuchlar muvozanatini tubdan o‘zgartirdi. Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi, Abbosiy xalifaligiga barham berilishi hamda Buyuk Ipak yo‘li savdo tizimining izdan chiqishi natijasida siyosiy parokandalik kuchaydi. Ana shunday murakkab sharoitda Amir Temur siyosiy sahnaga chiqib, tartibsizlik o‘rniga markazlashgan hokimiyatni o‘rnatish, iqtisodiy aloqalarni tiklash va mintaqada barqarorlikni ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

XULOSA

Amir Temurning tashqi siyosat doktrinasi o‘z davri uchun yangicha yondashuv edi: u harbiy qudratni diplomatiya, savdo va sivilizatsiyalararo muloqot bilan uyg‘unlashtirdi. Uning Yevropa davlatlari bilan aloqalar o‘rnatish tashabbuslari, ayniqsa Usmoniylar imperiyasining kengayishiga qarshi siyosiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, global darajadagi siyosiy fikrlashni aks ettiradi. Shunday qilib, Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun Yevroosiyo makonida siyosiy muvozanatni qayta shakllantirgan, o‘z davrining eng yirik davlat arbobi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Турк буюклари ва турк қаҳрамонлари. – Истанбул, 1967.
2. Фуломов С. Юқоридаги мақола // «Шарқшунослик» тўплами.
3. Умняков И.И. Внешнеполитические связи Самарканда с государствами Западной Европы. “История Самарканда”. Т.1. – Т., 1969
4. Люсен Кэрэн. Амир Темур салтанати.
5. Владимир Череванский. Амир Темур. – Т., 1993. – Б. 109-157.

²² Savinetskaga, I., "Theory, Practice and Chivalric identity: The French Contribution to the later Crusades", A.M. Thesis in Medieval Studies, Central European University, Budapest, 2009, pp. 28-29.

6. Иоанн. Амир Темур ва унинг саройи. Француз тилидан Баходир Эрматов таржимаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2005. – 13 май;
7. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. У.Жўраев, Б.Эрматов таржимаси. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т., 2007. Б. 3-207.
8. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи.
9. Маннонов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. // «Шарқшунослик» тўплами.
10. Ўзбек дипломатияси тарихи. – Б. 258-261.
11. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) / пер. со староисп., предисл. и коммент. И.С. Мироковой. М., “Наука” 1990, С. 212.
12. Andriopoulou Stavroula. Diplomatic communication between Byzantium and the West under the late Palaiologi (1354-1453), PhD. Degree in the University of Birmingham, 2010.
13. Ashtor, E., Levant Trade in the Middle Ages, Princeton, 1983.
14. Aşik Paşaoğlu, Aşik paşa Tarihi, Hazirlayan, Nihal Atsiz, Ankara, 1989.
15. Delavill le Roulx, Le France, Tome I, pp. 389-390; Luttrell, A., “Timur's Dominican Envoy”, In C. Heywood and C. Imber (eds.), Studies in Ottoman History in Honor of Professor V.L. Menage, Istanbul, 1994.
16. Fishel, W.J., “A new Latin Source on Tamerlane's Conquest of Damascus (1400/1401)”, Oriens, IX, 1956.
17. Savinetskaga, I., “Theory, Practice and Chivalric identity: The French Contribution to the later Crusades”, A.M. Thesis in Medieval Studies, Central European University, Budapest, 2009.